Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarining o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari.....	855
Otajonova Maftuna Sultonmurodovna , tayanch doktorant	
Kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish.....	859
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna , p. f. n.	
Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida.....	863
Sheraliyeva Saida Azatovna , katta o'qituvchi	
Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi.....	868
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich , tayanch doktorant	
O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari.....	875
Abdusherzov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions.....	879
Sheraliyeva Saida Azatovna , Independent researcher	

MILLIY MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIDAGI ILMIY-NAZARIY QARASHLAR



Burxanov A. U.
TDIU Moliya va buxgalteriya hisobi
fakulteti dekani, i.f.d., prof.



Muratov Amir Timur ug'li
TDIU Moliya va buxgalteriya
hisobi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar tahlil qilingan va unga nisbatan mualliflik yondashuvi shakllantirilgan. Qimmatli qog'ozlar bozorlarining ahamiyati va iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillari tadqiq etilgan. Moliya bozori aktivlarining daromadligini aniqlash ko'rsatkichlarining tavsifi keltirilgan va mam-lakatimizdagi ayrim yirik aksiyadorlik jamiyatlari aktivlarining daromadligi tahlil qilingan hamda tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, qimmatli qog'oz, aktivlar, daro-madlilik, moliyaviy institutlar, fond birjasi, obligatsiya.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL FINANCIAL MARKET

Burkhanov A. U.
Dean of the Faculty of Finance and Accounting TSUE, DSc in Economics, prof.

Muratov Amir Timur uly
Student of the Faculty of Finance and Accounting TSUE

Abstract: The article analyzes scientific and theoretical studies aimed at the development of the financial market and formulates the author's approach to it. The factors influencing the importance and economic growth of the securities market are indicated. The description of determining the profitability of financial market assets is given, the profitability of assets of some joint-stock companies in our state is analyzed and the corresponding conclusion and proposals are developed.

Key words: financial market, securities, assets, profitability, financial institutions, stock market, bond.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ФИНАНСОВОГО РЫНКА

Бурханов А. У.
Декан факультета Финансы и бухгалтерский учет ТГЭУ, д.э.н., проф.

Муратов Амир Тимур улы
Студент факультета Финансы и бухгалтерский учет ТГЭУ

Аннотация: В статье анализированы научно-теоретические исследования направленные на развитие финансового рынка и по отношению к этому сформулирован авторский подход. Указаны факторы влияющие на важность и экономический рост рынка ценных бумаг. Приведены описание определения рентабельности активов финансового рынка, анализированы рентабельность активов некоторых акционерных обществ в нашем государстве и выработаны соответствующий вывод и предложения.

Ключевые слова: финансовый рынок, ценные бумаги, активы, рентабельность, финансовые институты, фондовая биржа, облигация.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotining muhim segmentlaridan biri, bu fond bozori hisoblanib, bunda bo'sh pul mablag'larni qimmatli qog'ozlar emissiyasi va qayta taqsimlash orqali maqsadli joylashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday maqsadlarga qimmatli qog'ozlar bozorining an'anaviy va noan'anaviy segmentlari hisoblangan qimmatli qog'ozlarning barcha turlari o'z samarasini bergandagina erishiladi.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, oldi-sotdi kabi barcha operatsiyalarini o'z ichiga oluvchi muomalalarini asosan tijorat banklar amalga oshiradi. Bu ularning avvalo ustav kapitalini oshirish darajasini ta'minlasa, ikkinchidan bozorlardagi tijorat faoliyati yordamida chet elda turgan bo'sh kapitallarni harakatga keltiriladi. Shuning uchun, ayni paytda qimmatli qog'ozlarning barcha instrumentlari to'liq va samarali ishlashi uchun mazkur bozorlar infratuzilmasi zamon talablari asosida rivojlantirish davlat darajasiga oshirilishini talab etmoqda.

Shu nuqtai nazaridan, mamlakatimizda fond bozori infratuzilmasini rivojiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish va unda insonlar manfaatlariga qaratilgan aniq maqsadlar belgilanganligi davlat darajasiga ko'tarilganligi bilan izohlanmoqda. Xususan, mazkur masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "... moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak", deb tak'kidladilar.

Ayni paytda fond bozorlari va uning samarali faoliyati, ularning ishtirokchilari hamda muomaladagi xalqaro maqomga ega bo'lgan yuqori likvid qimmatli qog'ozlar turlari muhim ahamiyatga ega. Bunday jarayonlar davlat tomonidan infratuzilmaviy rivojlanish darajalariga bevosita bog'liq bo'lib, avvalo fond bozorlarini xalqaro miqyosga integratsiyalashuvni ta'minlash orqali yuqori sur'atlarda rivojlanishga olib borsa, ikkinchidan tijorat banklarning yuqori likvid va barqarorligini xalqaro me'yorlarga tenglashuviga olib boradi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun moliya bozorini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar yechimlariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi holatlar, fond bozorlari infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlanishi uchun, avvalo, shu bozorlarga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning yuqori likvidligi, bozor kapitallashuv darajasi, daromadliligi, kapitalni oshirish kabi muhim o'z xususiyatlarini ta'minlashlari uchun xizmat qiladi. Ularning yana bir xususiyatli belgisi-bu ularning risk darajalariga tobeligi hisoblanadi. Shuning uchun, fond bozori infratuzilmasini samarali rivojlantirish uchun ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan mavzu bo'yicha dolzarb g'oyalari ularning ya'ni bozorlar rivojlanish xususiyatlari va undagi moliyaviy vositalarga e'tibor qaratilgan.

Moliya bozoriga oid bo'lgan nazariyalar so'nggi 50 yil ichida dinamik rivojlandi. Nazariya va amaliyot o'rtasida o'zaro ta'sir mavjudligi, ilmiy tadqiqotlar investorlarning xulq-atvori va moliyaviy bozorlarning ishlashini tushunishga yordam berdi. Ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirdi va yangi moliyaviy vositalar hamda bozorlarning rivojlanishiga olib keldi.

So'nggi besh o'n yillikda, ayniqsa, muhim moliyaviy tadqiqot yo'nalishlari portfel nazariyasi, kapital aktivlari bahosi nazariyasi, foiz stavkalari tuzilishi nazariyasi, kapital tuzilishi nazariyasi, agentlik nazariyasi, samarali bozorlar nazariyasi va opsiya narxlar nazariyasi bo'lib hisoblanadi. Jumladan, G. Markovits 1952-yilda portfel nazariyasi bo'yicha tadqiqot natijalarini e'lon qildi¹, unda u bir o'lchovli investitsiya mezonlarining an'anaviy qo'llanilishini, masalan, sof joriy qiymat (NPV) mezonini ikki o'lchov bilan almashtirilishi kerakligini ta'kidladi. Keyingi o'n yilliklarda u o'z modelini kengaytirgan holda investorlar qimmatli qog'ozlarga alohida ya'ni faqatgina bitta qimmatli qog'ozga qaramasliklari kerakligini ta'kidladi².

Keyinchalik (1964-yilda) Uilyam F. Sharp Markovits modeliga asoslangan tadqiqotlarni takomillashtirdi³. Markovits modeli bilan bog'liq qiyinchiliklardan biri shundaki, u investitsiya qilish jarayonida mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlar soni ko'p bo'lsa, u juda katta bo'lgan variatsiya-kovariatsiya matritsasini baholashni talab qiladi. Sharp Mark ma'lum bir qimmatli qog'ozlarning daromadlari faqat umumiy omilga, odatda bozor indeksining qaytishiga nisbatan sezgirligi bilan o'zaro bog'liq deb hisoblab, murakkab bo'lgan baholash tartibini soddalashtirdi. Sharp Mark bundan keyin barcha investorlar risksiz foiz stavkasi bo'yicha qarz berish va qarz olish imkoniyatiga ega, ular samarali chegara shakliga rozi bo'lishadi va tranzaksiya xarajatlari yo'q taxminga tayanish lozimligini ta'kidladi.

1 Markowitz, H.M., 1952, "Portfolio Selection", Journal of Finance, 7, 77-91.

2 Markowitz, H.M., 1991, Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments, 2nd Ed., Basil Blackwell, Cambridge MA & Oxford, UK

3 Sharpe, W.F., 1964, "Capital Asset Prices – A Theory of Market Equilibrium Under Conditions of Risk", Journal of Finance, 19, No.3, 425-42.



Xalqaro fond bozorlari va undagi banklar ishtirokini Rossiyalik iqtisodchi olimlardan B. Rubtsov o'ziga xos xususiyatlarini xalqaro fond bozorlarida banklarining ishtiroki, roli va ahamiyatiga Anglosakson, Kontengagen, Aralash usullari orqali ochib berdi⁴. Shuningdek, B. Alexin esa, moliyaviy bozorni qimmatli qog'ozlar bozori va bank qarzlar bozori sifatida ko'radi. Muallif fikricha, istalgan mamlakatning iqtisodiy holati turli xildagi moliyaviy institutlar faoliyatiga bog'liq. Birjalar, banklar, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari – bularning xammasi turli toifadagi haridorlar va sotuvchilar o'rtasida pul – kredit va qarz, tovarlar, yuqori likvid qimmatli qog'ozlar va boshqa turida dalol sifatida yuzaga chiquvchi muassasalardir⁵.

Moliya bozorida qimmatli qog'ozlar daromadlilikini tadqiq etishda ularga ta'sir qiluvchi omillarni tushunish muhim ahamiyatga ega. B. G. Malkiyel va Anjelo Melinolar mos ravishda 1966 va 1988-yillarda "Kutilishlar gipotezasi nazariyasi"ni yaratdilar⁶. Ushbu nazariyaga ko'ra, forvard foiz stavkalari bozor ishtirokchilarining qisqa muddatli foiz stavkalarining kelajakdagi o'zgarishiga oid prognozlar va tegishli risk mukofoti bilan belgilanadi. Ammo, ushbu kutishlarni qanday modellash-tirish bo'yicha bir qator munozaralar mavjud.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan professor Sh. Sh. Shoha'zamiy yondashuviga ko'ra, moliyaviy vositalar (bank kapitalini oshirishga, likvidligini, bozor kapitalashuv darajasini oshirishga olib boruvchi sifatida) moliyaviy resurslarni investorlardan iste'molchilarga tomon va aksincha yo'nalishda harakat qilishini ta'minlovchi vositalar hisoblanadi⁷.

Fikrimizcha, fond bozorlarini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari va bozorlar samarasini oshirishuvchi tijorat banklarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish muhim afzalliklar olib kelishini inobatga olish lozim. Xususan, avvalo, mamlakatimizda fond bozorlarini rivojlanishi, bozorlarni yuqori likvid qimmatli qog'ozlarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish orqali quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- tijorat banklarning kapitallashuv, bozor kapitallashuv, xalqaro miqyoslarda mavqeini oshirish uchun o'rnatilgan me'yorga tenglashtirish, jahondagi yirik xalqaro moliya kredit institutlari bilan teng raqobat darajasiga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun o'zlarining yuqori likvid ananaviy obligatsiyalarini muomalaga chiqarish lozim;
- mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va banklarni likvidligini oshirish uchun fond bozorlarga tijorat banklarning o'zlarining yuqori likvid an'anaviy obligatsiyalarini xalqaro bozorlarga integratsiyasini rivojlantirish lozim;
- mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun, Markaziy bankning transmission kanal-larini samarasini inflyatsion tartibga solishga o'tish orqali oshirish maqsadida uning mustaqilligini oshirish nihoyatda muhim hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliya bozorida moliyaviy aktivlar ishlab chiqarishning moddiy boyliklarga aylantirilishi, o'z navbatida, savdo va sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga olib keladi va bu bilan iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi. Zero, kapital bozori rivojlanmagan mamlakatdagi aholi jamg'arma mablag'larini nisbatan yaroqsiz va samarasiz kanallarga, faqatgina ko'zga ko'ringan iste'mol mahsulotlariga va boshqalarga sarflaydi, yoki umuman sarflamaydi, natijada bu iqtisodiy o'sishga katta to'siq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiya loyihasida ko'rsatilganidek, milliy IPO/SPO fond bozorining shakllantirilishi mamlakatda xususiylashtirishni va moliya bozorini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jumladan, xususiylashtirish shaffof va ochiq tarzda amalga oshirilishiga, barcha zaruriy ma'lumotlarning oshkora bo'lishiga va shu orqali mahalliy hamda xorijiy investorlarning qiziqishlari oshishiga xizmat qiladi.

Mazkur sohani rivojlantirish – mamlakat iqtisodiyoti o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynashini inobatga olgan holda, ishlab chiqilgan strategiya loyihasini tezkorlik bilan hayotga tatbiq etish va shu orqali mamlakatimiz moliya bozorini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanishi davrida moliya bozorlaridagi operatsiyalar yanada faollashib, iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanib ulgurdi. So'nggi 15–20 yil mobaynida global moliya bozorlari intensiv ravishda o'sib bordi va moliyaviy instrumentlarning xalqaro muomalasi trillionlab AQSh dollariga yetdi. Xalqaro valyuta jamg'armasining baholashiga ko'ra, jahon moliyaviy aktivlari hajmi 1980-yildan hozirgi kungacha 15 barobardan ko'pga oshgan. Moliya bozorlari hajmi yalpi ichki mahsulot qiymatlariga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sib kelgan va iqtisodiy subyektlar uchun kapitalga erishishga va tavakkalchiliklarni samarali taqsimlashga imkoniyat yaratdi.

4 Рубцов Б.Б. Современное фондовые рынки. Учебное пособие для вузов. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2007 –926 с.

5 Алехин Б.И. Рынок ценных бумаг: введение в фондовые операции. –М.; Финансы и статистика.

6 Malkiel, B.G., –1966, The Term Structure of Interest Rates: Expectations and Behaviour, Princeton University Press, Princeton, NJ.

Melino, A., –1988, "The Term Structure of Interest Rates: Evidence and Theory", –Journal of Economic Surveys, –2, No.4, –335 ff.

7 Шоҳаъзамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник. –Т.: Iqtisod-moliya, 2005. –cc.13, 31-34.




So'nggi yillarda milliy qimmatli qog'ozlar bozorini institutsional modernizatsiya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rilmog'da. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlarining yangi tahrirlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi sohaning tashkiliy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Fond bozorida, xususan, ikkilamchi bozordagi hozirgi holat shuni ko'rsatdiki, aholi va investorlarning, shu jumladan, xorijiy investorlarning erkin mablag'larini jalb qilish hisobiga kapitalning milliy bozori tomonidan iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish bo'yicha asosiy vazifalari bajarilmasdan qoldi. Fond bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar, bu bozorni boshqarishdagi tashkiliy tuzilmalarning zamonaviy talablarga javob bermasligi, aksiyadorlik jamiyatlariga ortiqcha talablarning qo'yilishi, shuningdek, fond bozori sektorlarini isloh qilishda balanslashgan yondashuvlarga javob bermaydigan bozorning respublikadagi xususiylashtirish jarayonlari bilan bog'liqligi bo'ldi. O'zbekistonda fond bozorining 30 yildan beri faoliyat yuritib kelayotganiga qaramay, bugungi kunda respublikada fond bozorining rivojlanishi dastlabki bosqichda desa ham bo'ladi. Fond birjasi ushbu davr mobaynida Davlat raqobat qo'mitasining auktsion maydonchasi, ya'ni aksariyat hollarda davlat mulkiga qarashli korxona va tashkilotlarning xususiylashtirish mexanizmi rolini bajarib kelgan. Shuningdek, mazkur birja faoliyatini tartibga solish bevosita Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan amalga oshirilgan. Fond birjasida investor va aksiyalar sotuvchi o'rtasidagi bitim davomida yuzaga keladigan nizolar Davlat raqobat qo'mitasida qoshida tashkil etilgan maxsus markaz yoki komissiya tomonidan ko'rib chiqilgan⁸.

Ayni shu institutsional islohotlar samarasi o'laroq, kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan milliy moliya bozorini rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar hajmi 2025-yilga borib, YalMning 10–15 foiziga yetishi kutilmoqda⁹.

Bunga erishishda moliya bozori institutlarining ham o'rni yuqori hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: Moliyaviy institutlarning o'rni¹⁰

Markaziy bank kabi moliya institutlari barqarorlikni saqlash va inflyatsiyani nazorat qilish uchun iqtisodiyotdagi pul massasini tartibga solishga yordam beradi. Masalan, Markaziy bank iqtisodiyotdagi likvidlikni tartibga solish uchun repo stavkasini oshirish yoki kamaytirish, naqd pul zaxiralari koeffitsiyenti va ochiq bozor operatsiyalari, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish va sotish kabi turli choralarni qo'llaydi.

Tijorat banklari esa omonat va depozit xizmatlarini ko'rsatish orqali o'z mijozlariga yordam beradi. Bundan tashqari, ular qisqa muddatli mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun mijozlarga overdraft kabi kredit vositalarini taklif qilishadi. Tijorat banklari, shuningdek, o'z mijozlariga shaxsiy kreditlar, ta'lim kreditlari, ipoteka yoki uy kreditlari kabi kreditlar beradi.

Moliya institutlari kapitalni shakllantirishga yordam beradi, ya'ni zavod, mashinalar, asbob-uskunalar, binolar, transport, aloqa kabi kapitalni ko'paytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular iqtisodiyotdagi jismoniy shaxslarning bo'sh jamg'armalarini turli xil pul xizmatlari orqali investorga safarbar qiladilar.

8 <https://uzanalytics.com/iqtisodi%b5t/6772/>

9 <https://cmda.gov.uz/news/> – O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligining rasmiy veb-sayti.

10 Muallif tomonidan shakllantirildi.



Jismoniy shaxslar va korxonalar ixtiyorida ko'plab investitsiya variantlari mavjud. Ammo tez o'zgaruvchan sharoitda eng maqbul variantni tanlash oson emas. Deyarli barcha moliya institutlarida (bank yoki nobank) investitsiya bo'yicha maslahat bo'limi mavjud bo'lib, u mijozlar, investorlar va korxonalarga risk darajasi va boshqa omillarga qarab bozorda mavjud bo'lgan eng yaxshi investitsiya variantini tanlashda yordam beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorlarining ahamiyati va ularning rivojlanayotgan iqtisodiyotlardagi rolini e'tirof etgan holda, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omil sifatida fond bozorlarining rivojlanishini ta'kidlashimiz mumkin. U iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omillari sifatida nafaqat fond bozori hajmi va aylanmasini, balki tegishli fond bozorlari mahalliy bo'lmagan investorlar uchun qanchalik ochiqligini ham hisobga olgan holda mavjud tadqiqotlarni kengaytirishga harakat qiladi. Fond bozorida aktivlar daromadligini SAPM modeli orqali aniqlanadi.

CAPM (Capital Assets Price Model, U.Sharp modeli) aksiya daromadligini hisoblash formulasi¹¹.

$$r = r_f + \beta \cdot (r_m - r_f)$$

Bu yerda:

r – korxona aksiyasining kelajakda kutilayotgan daromad stavkasi;

r_f – risksiz aktiv bo'yicha daromadlilik;

r_m – o'rtacha bozor daromadlilik;

β – betta koeffitsiyenti.

CAPM modelini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar kerak bo'ladi:

Aksiyalari daromadlilik quyidagi formula orqali hisoblab chiqariladi:

$$\text{Акция даромадлилиги} = \ln \left(\frac{\text{бугунги кун акция қиймати}}{\text{олдинги кун акция қиймати}} \right)$$

Risksiz aktiv daromadlilik odatda, amaliyotda davlat qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlilik darajasida olinadi. Hozirda, O'zbekistonda davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha yillik stavka 14% ni tashkil qiladi.

Bozor daromadlilikini hisoblash uchun indeks daromadlilik olinadi

Betta koeffitsiyenti:

Betta koeffitsiyenti – aksiya (aktiv) risk darajasini bozorga nisbatan ta'sirchanligini va aksiya daromadlilikini o'zgarishini bozor daromadlilikiga nisbatan ta'sirchanligini o'lchash uchun qo'llaniladi.

XULOSA

1. Fond bozorlarini rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari va bozorlar samarasini oshirishuvchi tijorat banklarni noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish muhim afzalliklar olib keladi.
2. Tijorat banklarining jahondagi yirik xalqaro moliya kredit institutlari bilan teng raqobat darajasiga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun o'zlarining yuqori likvid an'anaviy obligatsiyalarini muomlagacha chiqarish lozim.
3. Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va banklarni likvidligini oshirish uchun fond bozorlarga tijorat banklarning o'zlarining yuqori likvid an'anaviy obligatsiyalarini xalqaro bozorlarga integratsiyasini rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Markowitz, H.M., 1952, "Portfolio Selection", Journal of Finance, –7, 77-91.
2. Markowitz, H.M., 1991, Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments, 2nd Ed., Basil Blackwell, Cambridge MA & Oxford, UK
3. Sharpe, W.F., 1964, "Capital Asset Prices – A Theory of Market Equilibrium Under Conditions of Risk", Journal of Finance, –19, No.3, –425-42.
4. Rubtsov B.B. Современное фондовое рынки. Учебное пособие для вузов. - М.: Alpina Biznes Buks, 2007. –926 s.
5. Alexin B.I. Рынок сменных бумаг: введение в фондовые операции. –М.: Финансы и статистика.
6. Malkiel, B.G., 1966, The Term Structure of Interest Rates: Expectations and Behaviour, Princeton University Press, Princeton, NJ. Melino, A., 1988, "The Term Structure of Interest Rates: Evidence and Theory", Journal of Economic Surveys, –2, No.4, –335 ff.
7. Shoha'zamiy Sh.Sh. Финансовый рынок и сменные бумаги. Книга 1. Учебник. –Т.: Iqtisod-moliya, 2005. –cc.13, 31-34.
8. <https://uzanalytics.com/iqtisodi%b5t/6772/>
9. <https://cmda.gov.uz/news/> – O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligining rasmiy veb-sayti.

11 W.F.Sharpe. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium Under Conditions of Risk. Journal of Finance, 19, 1964.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.